



SCIENCE BOX

ОТРАЖЕНИЕ СИМВОЛИКИ В ОРНАМЕНТАХ

Naqqoshlik Tilida Ramziylikning Aksi

Buxoro davlat universiteti, “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” kafedrası, katta o’qituvchisi
Gulnora Abdumalikovna Hakimova

Аннотация

Maqolada o’zbek xalq amaliy san’at turlari va asosan do’ppido’zlik san’ati haqida so’z yuritilgan bo’lib, milliy do’ppilarda ramziylikning aks etishi haqida keng ma’lumot berilgan.

В данной статье рассматриваются виды узбекского прикладного искусства и широко описываются символические значения национальных тюбетеек.

Ключевые слова: Ислими, (растительный узор), дуппидузлик (вышивание тюбетеек), символика, сюзана, палак, гулкурна, зардевор, ироки, чуст, пилтадузи, зардуппи.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati, ham san'at va ham hunardir. U asrlar davomida otobobolarimiz tomonidan ko'z qorachig'idek asrab-avaylab kelingan va hozirgi kunda yanada davom etib kelmoqda. O'tmishdagi qadriyatlarimiz xalqning bebaho madaniy merosidir. Ularda asrlar tajribasi jamlangan bo'lib, bobolarimiz ijodiy mehnati mujassam topgan. O'zi bir olam bo'lgan xalq amaliy san'ati, xususan naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi, kandakorlik, kashtachilik kabi sohalaridagi ijod namunalarini o'rganish yo'lida anchagina samarali tadqiqotlar mavjud. Yoshi ulug' ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlari orqali bir-birlari bilan unsiz ovozdagi gaplasha olar ekanlar.

Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilish kerak bo'lgan. Qadim zamonlardan ajdodlarimiz yashayotgan maskanlariga, devoru toshlariga, idish-tovoqlariga, ov jarayonlari, jangu-jadallar, bazmlar, tantana marosimlar, turli hayvon, qush hamda o'simlik va naqshlar bilan bezab kelganlar. Bundan tashqari bezaklarni yanada ta'sirchan kuchini oshirish uchun, xalq xikmatlari, ulug' allomalarning pand-nasihatlari, turli ramziy ma'noda ifodalab kelganlar. Ular go'zallikni yaxshi ko'rganlar, shu sabab go'zallik orqali insonlarga voqeliklarni tezroq etkaza olganlar.

Mustaqil O'zbekistonimizda xalq amaliy san'ati turlari va xunarmandchilikni yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun, usta-xunarmandlargakatta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston amaliy san'ati inson estetik didini shakllantirib, ularni axlokiy jixatdan tarbiyalab, ma'naviyatini yuksaltirishda, asrdan-asrga o'tib kelayotgan nodir amaliy san'at buyumlarini o'rganishda kashtachilik san'ati muxim manbalardan biri xisoblanadi. Keksa ustalarimiz aytishicha, qadimda naqqoshlik san'ati shunchalik rivojlangan ekanki, ular chizgan yoki bo'yagan naqshlar orqali bir-birlari bilan unsiz ovozdagi gaplasha olar ekanlar. Naqqoshlik tilini bilish uchun naqshning har bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini bilish katta ahamiyat kasb etgan. Ustoz shogird odobining eng asosiy shakllaridan biri, shogirdni amaliy san'atga bo'lgan muhabbat ruhida tarbiyalab, o'sha san'atning siru-asnolarini o'rgatishda, naqshlarning ramziy ma'nolari haqidagi bilimlarini rivojlantirishdir.

Ajdodlarimiz tomonidan meros bo'lgan naqshlarmazmunan qatlamdor, turlicha xissiy bo'yoq, shakl, ruh va mantiqiy hamda falsafiy ma'no va tovlanishlarga egadir.

Naqsh – stillashtirilgan o'simlik dunyosi, qushlar va hayvonlar, hamda geometrik va islmiy elementlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan bezak turi bo'lib, arabcha tildan

olingan bo'lib, gul degan ma'noni anglatadi. Har bir naqshning o'ziga xos manosi bor, hatto ibtidoiy davr odamlarining qoya toshlarga chizgan rasmlari ham muayyan ma'noni anglatgan. Ularning aksariyatida yovvoyi hayvonlarni ovlash, qo'lga o'rgatish jarayonlari, ov jarayoni kabi xilma-xil mavzular o'zining aniq ifodasini topdi.

Ornamental, ya'ni o'simliksimon va geometrik naqshlarning ramziy ma'nosi bo'lgan. Rang-barang o'simliksimon va geometrik naqshlar o'zaro kompozitsion bog'lanib, g'oyaviy ma'no jihatidan serjilo, sarmazmun yaxlit pannoni tashkil etgan. Naqqoshlikda ramz deganda nimani tushunish mumkin?

Ramz – arabcha so'zdan olingan bo'lib, "Ishora qilmoq", degan ma'noni anglatadi va tabiatni, voqelikni, hayotimizdagi quvonch va tashvishlarni, do'st va dushmani, yaxshilik va yomonlikni naqsh elementlari, turli jonli chiziqlar va ranglar orqali tasvirlash demakdir.

O'zbekistonda naqshlar o'qish alifbosi tuzilib, ularguruhlarga ajratib, ramziy ma'nolarini quyidagi bo'limlarga bo'lib chiqildi:

1. Geometrik naqshlarning ramziy ma'nosi;
2. Islimiy naqshlarning ramziy ma'nosi;
3. Qush va hayvonlarning ramziy ma'nosi;
4. Buyumlarning ramziy ma'nosi;
5. Ranglarning ramziy ma'nosi;

Amaliy san'atning barcha turlarida, masalan kandakorlik, kashtachilik, ganchkorlik, kulolchilik, gilamdo'zlik san'atida tikib, o'yib, chizib, zarb bilan naqshtasviri bajariladi. Naqqoshlik mashg'ulotlari jarayonida shogirdning ramziylikka oid bilimlarini rivojlantirish metodikasi ilmiy jihatdan atroflicha o'rganilib, O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama o'rganib, tahlil etish g'oyat muhimdir.

O'zbekiston o'zining kashtachilik san'atida yaratilgan asarlari bilan mashxur va xalq amaliy san'atining ko'p asrlik an'analari saqlab, kelajak avlodga etkazib bermokda. Kashtachilikda turli marosimlarga mo'ljallangan erkak va ayol kiyimlari, interneri bezash uchun mo'ljallangan so'zana, palak va badiiy buyumlar did bilan bejirim va chiroylik bezatilgan. Kashtachilik badiiy buyumlaridan so'zana, palak, gulko'rpa, zardevor, libos va do'ppilar chet ellarda xam juda mashxurdir.

Kashtachilik - Buxoro amaliy bezak sanati turlari orasida o'zining qadimiy ananalariga ega bo'lgan sanat turidir. Afsuski kashtachilik namunalarining eng qadimiylari saqlanib qolmagan.

Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rgani haqida o'zining "Kundalik" asarida yozib qoldirgan. Buxoro milliy kashtachilik maktablari va sanatining o'ziga xos tabiiy bo'yoqlarning qo'llanish texnologiyasi, ipakdan to'qilgan matolarda kashtalarning qadimiy nusxalari tikilayotganligi barchaning diqqat - etiborini o'ziga tortmoqda. Buxoro viloyatining G'ijduvon, Shofirkon, Vobkent, Qorako'l tumanlarida kashtachilik maktablari o'z faoliyatini ko'rsatmoqda. Bu maktablarda kashtalarning o'ziga xos belgilaridan biri, ularda "yo'rma" choki mahorat bilan qo'llanilishi havorang, gul rangi, binafsha, pushti, och sariq, qizil, malina va ko'k ranglarning uyg'unlashishidir. Buxoro kashtalarining yo'rma choki, kompozistiyasining tuzilishi, gullari xilma - xilligi bilan farq qiladi.

Buxoro milliy kashtachiligida Shofirkon kashtalari alohida o'rin egallaydi. Shofirkon kashtachilik maktabining bugungi kundagi etakchi ustalaridan biri Zuxro Obloberganovadir. Buxoro kashtalari asosan oq tabiiy karbosga tushirilsa, Shofirkon kashtalari sariq, oq, malla, yashil, siyohrang, shoyi va hisori matolarga ham tikilgan. Kashtalarda markaz va burchaklarda bo'rtib ko'rinuvchi yopiq kompozistiya ko'proq uchraydi. Buxoro kashtachilik maktabining etuk namoyondalaridan biri Iroda Maxmudova, Ahmad Arabov, Zaynab Murodova, Bahodir Gulob, Madina Qodirova, Sanjar Nazarov Surayyo Xalilovalar o'zining halol mehnati bilan xalqimiz olqishi va hukumatimiz etirofiga sazovor bo'lib, sanat asari darajasidagi ishlari orqali dunyo ahlini lol qoldirib kelmoqdalar.

O'zbek xalqi ko'p asrlar davomida dunyoga shuhrati ketgan ajoyib amaliy bezak san'atini vujudga keltirdi. Bu san'at juda rang-barang, go'zal va boydir. Ipakchilik qadimgi davrlardan taraqqiy etgan, mamlakatimizda kashtachilik xalq ijodining eng ommaviy turlaridan biri bo'lib kelgan. Go'zal va jozibador qilib tikilgan do'ppilar o'zbek erkak va xotin - qizlari, bolalarning hozirgi zamon kiyimlariga o'ziga xos joziba berib turadi va milliy kiyimning bir qismini tashkil etadi. Bugungi kunda kashta bilan bezatilgan buyumlar faqat turar joyini emas, balki jamoat binolarini, restoran va mehmonxonalarga o'zgacha go'zallik va milliylik ruhini bag'ishlaydi. O'z an'analari bilan xalq turmushiga chambarchas bog'langan nafis badiiy kashtachilik O'zbekiston bezak san'atining ajoyib yutuqlaridan biridir.

Kashtachilik san'atining juda ko'p turlari mavjud: so'zana, palak va milliy liboslar keng tarqalgan o'ziga xos iroqi uslubida tikilgan, har bir tumanda turli xil uslub va choklarda tikilgan do'ppi jular jumlasidandir. O'zbekistonda do'ppido'zlik san'atining vujudga kelishi siyosiy davrga to'g'ri keladi, ya'ni O'rta Osiyo xalqlari hayotida Oktyabr to'ntarishi yangi ijtimoiy davrga asos soldi. Bu voqea madaniyat va badiiy san'atga ham bevosita o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Ustalarning ongida yangi dunyoqarash, borliqni estetik anglashning qayta ko'rinishi sodir bo'ldi.

Do'ppilarning naqshi va kashta bezakdorligi bilan ko'zni quvontirgan. Mahalliy do'ppilarning an'anaviy shakli va ko'rinishi alohida maktablarga qarab bo'linishiga olib keldi. Aholi orasida do'ppiga bosh kiyim sifatida qiziqishning ortishi XX asrning o'rtalarida boshlandi. 1920-1930 yillarda do'ppi kashta bilan bezatilgan bosh kiyimning yagona bosh kiyimi bo'lib, erkaklar va ayollarning kundalik bosh kiyimi bo'lib, erkaklar va ayollarning kundalik bosh kiyimi bezagi sifatida xizmat qilib kelgan. Do'ppido'zlik sanoati xalq badiiy ijodiyotining eng ommaviy san'at turi bo'lib xizmat qila boshladi va o'zida shaxsning individualligini, tasavvurning boyligi, naqsh kompozistiyalarning ko'p qirraligi va bezakdorligini ifodalagan. Bu davrga kelib do'ppilarda naqshlarning yangicha ko'rinishi va ko'p elementligi kengaydi. Ular asosan uchta shaklda, ya'ni dumaloq, konussimon va to'rtburchak shaklidadir.

Milliy do'ppi bezaklarining falsafasi mustaqil o'zbek davlati, boy tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining milliy timsollaridan biri, uning an'anaviy bosh kiyimi hisoblanadi. Hozirgi kunda milliy qadriyatlarimiz tiklanib, yangi binolar milliy an'analar asosida qurilib, shaharlar ko'rkiga ko'rk qo'shilmoqda. Milliy liboslar ham moddiy va ma'naviy yodgorliklarning bir qismi singari, xalqning o'ziga xosligini aks ettiradi va etnik belgilarini namoyish etadi.

O'zbek xalq amaliy san'atining eng ko'p tarqalgan va ommalashgan turlaridan biri, do'ppi o'zbek milliy bosh-kiyimlarisifatida xalq hayoti, an'analariga singib ketgan. Do'ppi turkiy so'z bo'lib, tepa degan ma'nosini bildiradi, uni Markaziy Osiyo, Eron va ayrim O'rta Sharq mamlakatlarida, Afg'oniston, Eron, Turkiya va boshqa mamlakatlarda uchratish mumkin.

O'zbekistonda Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do'ppilari mashxur bo'lib, ular nomi va o'ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Uning iroqi, chust, gilam do'ppi, chakma to'r, qizil gul, piltado'zi, zardo'ppi, to'ldirma deb nomlangan xillari bor. Do'ppido'zlik juda qadimdan rivojlangan amaliy san'at turi bo'lib,

uni qadimiy haykallarda, yodgorliklarda, qo'lyozmalarda, devoriy rangtasvirlarda, O'rta Osiyoda (XV-XVI) mansub kitob miniatyuralarida, xattoki xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'rish mumkin. Do'ppilarning qariyalar, erkaklar, ayollar, shu jumladan, o'g'il bolalar, qizlar va emizikli go'daklaruchun mo'ljallangan turlari ham bor. Ular ramziy ma'noga ega bo'lib, tumorli, popukli, shakli, rangdorligi, ipakdan sharsimon popuk to'qilganligi va boshqa turlari bilan farq qiladi.

Do'ppilarda ko'p uchraydigan bodom elementi bo'lib, u qut - baraka va hayot ramzi sifatida qo'llanilib kelingan, ya'ni shu odamning uyidan hayoti davomida qut - baraka ketmasin, umri uzoq bo'lsin, degan ma'noni anglatgan. Shu bilan bir qatorda, bodom naqshi ko'pgina kasalliklarga davo, hamda fasllarning kelinchagi bo'lmish bahorning darakchisidir.

Ramziy naqshlarning yana biri - bu qalampir tasviridir. Qalampir yomon ko'zdan asrash ma'nosini anglatishi hech kimga sir emas, shu sababli qalampirdan tuzilgan naqsh kompozitsiyainsoniyatni doimo o'rab turgan. Bu naqsh tasvirini bosh kiyimlarda, liboslarda, so'zana va palaklarda, uy-ro'zg'or buyumlarida doimo uchratish mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga, shuningdek, ko'zi yorigan ayollarga yomon ko'zlardan asrash ma'nosida qalampir shaklidagi taqinchoqlar va tumorli bezaklar taqilgan. Amaliy san'at turlari naqqoshlik, kulolchilik, kashtachilik, san'at namunalarida ilon yoki ilon izi tasviri ko'p ishlatiladi. Ilon yomonlikdan asrovchi timsol sifatida ishlatilgan. O'tmishda ilonga sajda qilishgan, ilonning sehri, kuch - qudratiga ishonishgan, ilon zahridan tayyorlangan dori-darmonlardan tabobat dunyosida keng foydalaniladi, shuning uchun do'ppilarda ham ilon tasviri ishlatilgan. Do'ppilarda hayvonlar, tog' kiyigi, chayon va qoplonga o'xshash tasvirlar ham tasvirlanaldi. Xandasaviy naqshlar ham ommaviy bo'lgan, tik va ko'ndalang chiziqlar va to'g'ri burchaklar chatishuviga komil uyg'unlik deb qaralgan.

To'lqinsimon va sochma naqshlar obi hayot to'lqinlari timsolini aks ettirib, ular dehqonchilikda qut - baraka ramzi bo'lgan. Do'ppilarda tasvirlangan naqsh kompozitsiyalarda qator hollarda arab yozuvi kashtada uyg'unlashib ketgan. Ibratli va dono so'zlar, samimiy tilaklar va hayotiy iboralar do'ppi kashtasining mazmuni va ifodaviy nafosatini teranlashtirgan. Bu naqsh va yozuvlar bir vaqtning o'zida ko'zlarni quvontirish, hamda xalqni ongini rivojlantirish uchun xizmat qilgan.

O'zbekiston xalqlari tarixi Davlat muzeyida saqlanayotgan XX asr boshiga mansub Buxorocha erkaklar do'ppisida arab yozuvida oq ipak bilan shunday so'zlar bitilgan:

“Quloq, mayli boshda qolsin, dushman er bilan yakson bo’lsin!”

Do’ppilar amaliy va ma’naviy qimmatga ega bo’lib, inson boshini quyoshdan, shamoldan, issiqdan, sovuqdan asragan, odamning jismoniy kamchiligini yashirgan, bosh og’rig’idan asrab, shamollashning oldini olgan. Do’ppining ma’naviy qimmati esa ajdodlarning o’lmas qadriyatlarini singdirishi, bezashi, kishini ko’rkam ko’rsatib, qaysi millat vakili ekanligidan dalolat bergan, insoniyatni axloqiy tarbiyalab, yomon ko’zlardan asrab kelgan. Kvadrat shaklidagi do’ppilar boshga kiyishda qulayligi, chiroyliligi bilan ajralib, dunyoning to’rt tomonini, ya’ni osmon saroyi, Quyosh farzandi, abadiylik va yorug’likni bildiradi. Do’ppi tepa qismida to’rtga qirrasining bitta nuqtada birikishi esa, Ollohning yagonaligini bildiradi, oqrangdagi yarim aylana va bodom – bu baxt va iqbol ramzidir.

Pastgi qismidagi to’rtburchak, ya’ni qubbashaklining takrorlanishidan hosil bo’lgan islamiy naqsh, qal’ani o’rab turgan devorlarni eslatib turadi va bu to’rt tomondan yomon ko’zlardan va ofatlardan saqlab turuvchi qal’a devoridir. Bosh kiyim bo’lmish do’ppilarda mardlik, jasorat, halollik, poklik, kabi belgilar mujassam va do’ppitimsolidagi bunday ramzlar milliy tuyg’u ustivorligidan dalolat beradi. Do’ppi tikishda katta hayotiy tajriba, aql - zakovat, zehn - idrok, did, mushohada yuritish, kuzatuvchanlik kabi fazilatlar talab qilinadi. Turli bezaklarga boy do’ppilar nafaqat o’zbek xalq an’anaviy milliy liboslaridan biri, balki milliy koloritiga yo’g’rilgan zamonaviy bosh- kiyim sifatida ham yashab qoladi.

Ota – bobolar qadimdan inson boshidagi do’ppisi orqali, “Boshing har doim omon bo’lsin!” deb, yaxshi niyat va duo qilganlar.

ADABIYOTLAR:

1. “Vishivka shyolkom-put k prekrasnomu”. “Pedagogik mahorat.” Nazariy va ilmiy-metodik jurnal. Buxoro. 2013. №1 B.66-69
2. “Psixologiya sveta i rol sveta v nashey jizni”. Jurnal nauchnix publikatsiy aspirantov i doktorantov. Kursk 2015. Aprel №4 B.76-79
3. «Uzbekskaya ruchnaya vshivka - moguchaya vetv na dreve narodnogo tvorchestva». Molodoy ucheniy. Mejdunarodniy nauchniy jurnal. Kazan 2016. 1-iyun. №11(115) B.1623-1625
4. S.Bulatov “Xalq amaliy bezak san’ati” - T.: 1991.- 312 b.

5. A.Xakimov «Prikladnoe iskusstvo Uzbekistana: tradisii i innovatsii» T.: 2013. - str. 39
6. Ядгаров, Н. Д., & Хакимова, Г. А. (2018). Самобытное творчество народных мастеров Узбекистана. *Молодой ученый*, (15), 272-275.
7. Хакимова, Г. А. (2020). Методические рекомендации по обучению искусству батика на занятиях творческих кружков. In *Актуальные задачи педагогики* (pp. 34-37).
8. Хакимова, Г. А., & Кадирова, Н. А. (2021). НАСКАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ В ПРОИСХОЖДЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 78-80.
9. Хакимова, Г. А., & Авезов, Ш. Н. (2015). ПСИХОЛОГИЯ ЦВЕТА И РОЛЬ ЦВЕТА В НАШЕЙ ЖИЗНИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (4), 76-79.
10. Khakimova, G. A. (2020). Methods of teaching and analysis of sewing methods in applied art. *THE AMERICAN JOURNAL OF APPLIED SCINCES*, 109.
11. Жумаев, К. Ж., Ибатова, Н. И., Авезов, Ш. Н., & Ишанкулов, Ш. Ш. (2021). ИСТОРИЯ И РАЗВИТИЕ БАТИКА. *European science*, (2 (58)), 56-59. Ибатова, Нигора Истамовна, et al. "НАТЮРМОРТ-ЖАНР СРЕДИ ДРУГИХ ЖАНРОВ." *European science* 2 (58) (2021): 53-56.
12. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badieva D. M. THE IMPORTANCE OF USING THE KEYS-STADI INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGY METHOD IN TRAINING THE IMAGE MODULE OF GEOMETRIC SHAPES //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 335-338.
13. Сулаймонова, Мухиба Болтаевна, et al. "ДОСТИЖЕНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ И НРАВСТВЕННОЙ ЗРЕЛОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ." *European science* 3 (59) (2021): 53-56.
14. Аминов, Акмал Шавкатович, et al. "ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ." *European science* 2 (58) (2021): 77-79.

- 15.Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (2 (58)), 62-65.
- 16.Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВОООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.
- 17.Бадиев, М. М., Собиров, Т. Р., Авлиякулов, М. М., & Азимов, С. С. (2021). АНАЛИЗ ОБРАТНЫХ ЗАДАЧ В НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 76-77.
- 18.Islamovna M. D. The value of using the autocad program in the works of machine-building drawings for building fastening parts //Proceeding of The ICECRS. – 2019. – Т. 3.
- 19.Nazarova S. M., Zaripov G. T. GENERAL PHYSICAL PROPERTIES OF IRRIGATED GRASS SOILS OF BUKHARA OAZIS AND WAYS TO IMPROVE THEM //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 3. – С. 66-69.
- 20.Tokhirovich, Z. G. (2021). Technology of preparation of composition from spinach pumpkin. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 424-429.
- 21.Djalolovich Y. N. et al. IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FINE ART TEACHERS //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 44-46.
- 22.Авлиякулов, М. М., Собиров, Т. Р., Бадиев, М. М., & Азимов, С. С. (2021). ОБЩИЕ ЗАКОНЫ КОМПОЗИЦИИ В РЕЗЬБЕ ПО ДЕРЕВУ. *European science*, (2 (58)), 32-34.
- 23.Samadovich, A. S., Nayimovich, A. S., & Nosirovna, S. M. (2021). Technology Of Teaching Fine Arts And Science Classroom. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 25(2), 109-111.
- 24.Авлиякулова Н. М. и др. РОЛЬ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ //European science. – 2021. – №. 2 (58). – С. 95-97.
- 25.Остонова, Г. Р., Ибадуллаева, Ш. И., Мусинова, А. С., & Авлиякулова, Н. М.

- (2021). ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ. *European science*, (2 (58)), 104-106.
- 26.Sadikovna, M. A., Razzokovna, O. G., Ilhamovna, I. S., & Muzaffarovna, A. N. (2021). THE PLACE OF ART IN PERSONAL DEVELOPMENT. *European science*, (2 (58)), 98-100.
- 27.Kadirov O. M., Kadirova N. A., Kahhorova M. METHODS OF USING FOLK TALES AND FOLKLORE ABOUT CRAFTS IN THE ORIENTATION OF YOUNG PEOPLE TO THE PROFESSION //E-Conference Globe. – 2021. – С. 74-77.
- 28.Хакимова, Г. А., & Кадирова, Н. А. (2021). НАСКАЛЬНАЯ ЖИВОПИСЬ В ПРОИСХОЖДЕНИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 78-80.
- 29.Шомуродов, О. Н., Ширинов, А. Л., Батиров, Д. С., & Хакимова, Г. А. (2021). МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦВЕТОВ И КРАСКИ ПРИ ОБРАБОТКЕ ИЗОБРАЖЕНИЙ. *Наука и образование сегодня*, (5 (64)), 80-82.
- 30.Ботиров, Д. С., Шомуродов, О. Н., & Ширинов, А. Л. (2021). МЕТОДИКА ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. *European science*, (2 (58)), 101-103.